

THE FIRST NATIONAL THEATER IN TURKESTAN

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

Tashkent State Agrarian University,

Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature

Email: malika122yun@gmail.com

ANNOTATION

This article discusses the intellectuals of the Uzbek people, who are among the stars of spirituality, who prefer the freedom and liberty of the Uzbek nation. It is about Jadids who fought for freedom, independence, culture, and even their lives. The theme in the play never wears out. Spiritual people have always been degraded. The value of the work is still one of the most pressing issues today. Elements such as injustice, cruelty, ignorance, and drunkenness do not choose time. Today's students are prepared in the hope that it will be a sound from the maze.

Keywords: Jadid, dramaturgy, muqallid, ihota, theater, sas, society, method, enlightenment, troupe, movement, performance.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek xalqining ma'naviyat yulduzlaridan bo'lgan, o'zbek millatining ozodligini, erkini afzal deb bilgan jadid ziyolilari haqida fikr bildiriladi. Erk, istiqlol, madaniyat uchun o'z halovati va hatto hayotidan voz kechib kurashgan jadidchilar haqida gap boradi. Spektakldagi mavzu hech qachon eskirmaydi. Hamisha ma'naviyatsiz insonlar tubanlikka yuz tutgan. Asarning qiymati hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biridir. Nohaqlik, qabihlik, uquvsizlik, ichkilikbozlikka mukkasidan ketish kabi unsurlar zamon tanlamaydi. Bugungi kun talaba yoshlariga moziydan kelayotgan sas bo'la oladi degan umidda tayyorlandi.

Kalit so'zlar: Jadid, dramaturgiya, muqallid, ihota, teatr, sas, jamiyat, usul, ma'rifat, truppa, harakat, spektakl.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются интеллектуалы узбекского народа, находящиеся в числе звезд духовности, предпочитающие свободу и свободу узбекской нации. Речь идет о джадидах, борющихся за свободу, независимость, культуру и даже свою жизнь. Тема в пьесе никогда не устаревает. Духовные люди всегда деградировали. Стоимость работы по-прежнему является одним из самых актуальных вопросов на сегодняшний день. Такие элементы, как несправедливость, жестокость, невежество и пьянство, не выбирают время. Сегодняшние молодёжи готовятся в надежде, что это будет звук из лабиринта.

Ключевые слова: Джадид, драматургия, мукаллид, ихота, театр, звук, общество, метод, просвещение, труппа, движение, спектакль.

INTRODUCTION

XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixida yangi o'zbek milliy teatrining shakllanish davri bo'ldi. O'zbek millatining ozodligini, erkini afzal deb bilgan jadid ziyolilari ma'rifatning eng asosiy – muhim talqini bu teatr deb bilishdi. O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi edi. O'sha davr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardan biri bo'lgan.

Turkistonga rus, tatar, ozarbayjon teatrlarining kirib kelishi o'zbek milliy teatr san'atini shakllanishiga turtki bo'ldi. Qadim zamonlarda, davr taqazosi bilan yo'qolib, o'z o'rnini masxaraboz va qiziqchilarning maydon tomoshalariga bo'shatib bergan xalq madaniyati endi boshqacha shaklda sayqallanib yana maydonga keldi. Endi qadimiy ildizlaridan tamomila uzilgan, hatto mutlaqo tasavvur qilib ko'rmagan avlodlar uchun qayta tug'ildi.

Turkistonning asr boshlari matbuotida 1909 yilda "o'zbek teatri o'ynaldi" degan xabarlar tarqala boshladi. 1910 yilda gazetada "tez fursatda Toshkent shahrida teatr, ya'ni "muqallid"¹. o'yini o'ynalaturg'on musulmon jamiyati (truppa) ochilur emish... U jamiyat musulmon zabonida "muqallid" o'ynar ekanlar", degan xabarlar matbuotda tez-tez bosilib chiqadi.

Umuman olganda teatr masalasiga qiziqish 1910 yillardan boshlangan. XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uning birinchi qaldirg'ochlari tatar ma'rifatparvarlari qatorida yerlik ziyolilardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiq-Ajziy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy kabi o'nlab atoqli zotlar edi. Bu adabiyot vakillari go'yoki, qorong'u xonaga yorug' nur bo'lib kirib kelishdi. Jadid ziyolilarimizni "Uyg'onish davrining daholari", desak hech ham adashmaymiz.

1909 yil 2 oktabr "Turkiston viloyatining gazetisi"da M. Behbudiy "Yaqin zamonda qonunlar va aksar ishlar boshqa rangga kirar va kundan-kun madadiya bizni ihota 2. etur. Biz, endi kerakki, o'z din va millatimizni, davlatimizni Millat Majlisida mudofaa etaylik", deb aytadi. Jadidchilik harakatining bir bosqichiga aylangan ma'rifatchilik qatorida jadid teatri va dramaturgiyasi yuzaga keldi. O'zbek teatri – ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi.

1. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY "PADARKUSH" PYESASI VA TEATRCHILIK HARAKATI

XX asrning o'zbek adabiyoti, matbuoti, madaniyatining atoqli namoyondasi hamda milliy dramaturgiya va sahna sah'atini shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan, qolaversa, Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschisi va rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy 1911 yilda "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli "3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojea" sini yozdi. "Padarkush" ning nashrdan chiqishiga bir necha to'siqlar bo'lishiga qaramay nomini biroz o'zgartirib, 1913 yilda 23 martdagi 19940-son qarorga ko'ra Samarqandda kitob holidan chop etiladi. Asarning nashrdan chiqishi tom ma'noda o'zbek milliy teatrining tug'ilishi bo'ldi. Pyesani shu yilning o'zidayoq sahnalashtirish harakati bo'shlanib ketadi. 3.

"Padarkush" pyesasi ilk bor havaskorlar tomonidan 1914 yil 15 yanvarda Samarqandning Yangi shaharida namoyish etildi. Asar namoyishi ancha shov-shuvga sabab bo'ldi. Minglarcha xalq teatrga qiziqib kela boshladi. Chunki bu – o'z davrining yangiligi edi. 320 o'rinlik teatr zaliga yana ellikta qo'shimcha joy qilinib, chiptalar avvaldan baland narxlarda sotildi.

Ba'zilarning tik oyoqda turishga ham rozi bo'lishi spektaklning katta voqeaga sababchi bo'lganligini isboti edi.

“Padarkush”ning ilk muvaffaqiyati butun Turkiston bo'ylab yoyildi. Ketma-ket barcha yirik shaharlarda sahnalashtirildi. Odamlarning brogan sari qiziqishi ortdi. Bu rostdan ham o'sha davrning inqilobiy yangiligi edi.

Spektakldagi ro'llarni Abdusalom Abdulrahim o'g'li (Boy), Abbos (Xayrulla), Mardonqul Shomuhammad o'g'li (Domla), Yozdonqul Shohmuhammad o'g'li (boyvuchcha Toshtemir), Mirzo Mo'mon mulla Fozil muftiy o'g'li (Ziyoli), Rahimqul Muhammad Solih o'g'li, Mirhoshim Mirrahim o'g'li, Muhiddin Jo'raboy o'g'li, (mayxonadagi bo'z bolalar, yigitlar), Abdulla Badriddin o'g'li (boy xotin), tatar aktyorlaridan Ahmad Shamsuddinov (Pristav) larni ijro qilishgan. Asar rejissyori Abdulla Avloniy bo'lgan. Tanaffus vaqtida Samarqandning mashhur hofizi Hoji Abdulaziz qo'shiq aytib bergan. Spektaklni musulmonlar qatorida rus, yahudiy, tatar tomoshabinlari ham olqishlab turganlar. 1914 yilga kelib Samarqandda truppa paydo bo'ldi. “Padarkush” Turkistonda teatr harakati uchun turtki bo'ldi. Behbudiyning ta'biri bilan aytganda “teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur”, “Teyotrda savodsiz odam ko'zi ila ko'rib, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar” deydi. 4. Yana Behbudiy ikkita emas to'rt tilni bilish kerakligini uqtiradi (turk, fors, arab, rus tilini). Hozirgi kunda til bilish muhimdir. Spektakldagi mavzu hech qachon eskirmaydi. Hamisha ma'naviyatsiz insonlar tubanlikka yuz tutgan. Asarning qiymati hozirgi kunda ham dolzarb sanaladi. Nohaqlik, qabihlik, uquvsizlik, ichkilikbozlikka mukkasidan ketish kabi unsurlar zamon tanlamaydi asli. Ko'r-ko'rona har xil oqimlarga kirib qolishlik oqibatida Vatanga xiyonat qilib qo'ygan yoshlarga to'g'ri yo'lni tanlashga yordam bera oladigan asardir.

Adibning asari chashmaga o'xshaydi. Shu chashmadan qancha ko'p ichsang, shuncha ma'naviy ozuqa olasan kishi. Kelajak o'tmishdan boshlanadi. Yoshlarimiz bu porloq kunlarning sababchilari haqida yaratilgan ko'plab asarlardan bahramand bo'lsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.M.Rahmonov. O'zbek teatr tarixi. Toshkent,1968 yil.
2. B.Qosimov. Salom kelajak. Toshkent.1986 yil.
3. M. Qodirov.O'zbek xalq tomosha san'ati. Toshkent.1981 yil.
4. M.Behbudiy. “Oyna”jurnali.1914 yil 29-son.